

"Boburiylar sulolasi: tarixi, adabiyoti, madaniyati" mavzusida seminar hamda foto ko'rgazma tashkil etildi

Joriy yil 21-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hamda Lal Bahodir Shastri nomidagi Hindiston madaniyat markazi hamkorligida "Boburiylar sulolasi: tarixi, adabiyoti, madaniyati" mavzusida ilmiy seminar o'tkazildi. Tadbir doirasida Bobur asarlari qo'lyozmasining Hindiston nusxalari foto ko'rgazmasi ham tashkil qilindi.





Tadbirning ochilish marosimida O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti tarix fanlari doktori, professor Bahrom Abdughalimov, Hindiston Respublikasining O'zbekistondagi elchisi Manish Prabxat, Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazi direktori Samir Abbosov, Bobur nomidagi Xalqaro jamoat fondi direktori Zokirjon Mashrabov nutq so'zladi.

Shuningdek, tadbirda professor Chandr Shekxar (Hindiston) – “Hindiston Milliy muzeyidagi “Boburnoma”, professor Tanju Seyxan (Turkiya) – “Boburshoh ijodida vaqtga oid leksika”, professor Najmuddin Nizomiddinov (O'zbekiston) – “Boburiylar davri hind-musulmon musiqa san'ati”, professor Almaz Ulvi Binnatova (Ozarbayjon) – “Boburnoma”da tazkirachilik an'analari”, professor Muhammad Rizo Nasiri (Eron) – “Boburnoma” tahriri va yangi ma'lumotlar”, doktor Shafiqa Yorqin (Shvetsiya) – “Boburning yaxlit voqeа haqida hikoya qiluvchi she'rlari”, professor Ramiz Askar (Ozarbayjon) – “Anqara milliy kutubxonasiдagi Bobur asarlari”, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktor Baxtiyor Mammedov (Ozarbayjon) – “Bobur ijodi umumturkiy madaniyatining noyob hodisasi sifatida”, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Shuhrat Hayitov (O'zbekiston) – Bobur merosining xorijda o'rganilishi”, filologiya fanlari nomzodi Salimaxon Eshonova (O'zbekiston) – “O'zR FA Sharqshunoslik institutidagi boburiylar sulolasiga mansub nazmiy asarlar”, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Karomat Dilorom (O'zbekiston) – “Boburiylar davri hind musiqaсiga oid manbalar”, doktor Mirmahmud Mirsaydullayev (O'zbekiston) – “Bobur muhri”, tarix fanlari nomzodi Saidakbar Muhammadaminov (O'zbekiston) – “O'zR FA Sharqshunoslik institutidagi “Fatavoi Olamgiriya” to'plami qo'lyozma nusxalari xususida”, filologiya fanlari doktori Jaloliddin Jo'rayev (O'zbekiston) – “Nafois ul-maosir” tazkirasidagi Boburiylar sulolasiga oid ma'lumotlar”, professor Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston) – “Bobur “Aruz risolasi”ning Temuriylar davri aruzshunoslida tutgan o'rni”, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Oysara Madaliyeva (O'zbekiston) – “Abdulla Nosirovning “Zahiriddin Muhammad Bobur” daftari haqida”, tadqiqotchi Botirali Yo'ldoshev (O'zbekiston) – “Boburnoma”, “Humoyunnoma” asarlarida “Bog'i Bobur” tavsifi” mavzusidagi ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Tadbir Bobur va Boburiylar shaxsiyati, ilmiy va adabiy asarlari, ular qoldirgan madaniy merosiga oid yangi ma'lumotlarni taqdim etgan do'stona va savol-javoblar asosidagi ilmiy muloqot tarzida o'tdi. Seminar ishtirokchilari bunday suhbat va o'zaro fikr almashinuvlarning tez-tez o'tkazib turilishi Bobur va boburiylar tarixiga oid yangi manba va xulosalarni taqdim qilishi bilan birga olimlar o'rtasidagi ilmiy hamkorlikning kengayishiga ham xizmat qilishini qayd qildilar.